

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**  
**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI**  
**ROMAN-GERMAN TILLARI FAKULTETI ISPAN VA ITALYAN TILLARI**  
**KAFEDRASI**  
**ITALYAN TILI YO'NALISHI**

# **MUSTAQIL ISH**

**MAVZU: Italyan tilida morfologik kategoriyalar.**

**Bajardi:** Erkinova D.A.

3.03 italyan guruhi talabasi

**Samarqand-2017**

## **REJA:**

1. Italiyan tili morfologiyasining ahamiyati.....	6
2. Xorijiy til grammatikasini qiyosiy o'rganish usullari.....	8
3. Italyan tili morfologiyasida mustaqil va yordamchi so'z turkumlari.....	10
4. Italyan tilida morfologik kategoriyalar.....	17
<b>XULOSA.....</b>	<b>21</b>
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....</b>	<b>24</b>

## 1.1 Italiyan tili morfologiyasining ahamiyati.

Grammatika (grek. grammatika «harf o'qish va yozish san'ati», «harf») atamasi tilning morfologik va sintaktik qurilishi va bu qurilishni o'rganadigan tilshunoslikning bo'limi ma'nolarida qollaniladi. Demak, grammatika tilshunoslikning morfologiya va sintaksis bo'limlarini o'z ichiga oladi.

Grammatikani o'rganish jarayonimizda, uni uch qismga bo'linishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi va ular quyidagilardan iborat:

1. Tasviriy grammatika (La grammatica descrittiva) – bu grammatikaning bir turi bo'lib, bir til yoki biron-bir sheva, dialektni ayni hozirgi davrdagi ko'rinishini tasvirlaydi, o'rganadi. Va shuni ta'kidlash joizki, grammatikaning bu turi o'sha o'rganilayotgan tilning tarixi bilan qiziqmaydi.
2. Qiyosiy grammatika (La grammatica comparata) – bu tur tillarni bir-biri bilan qiyoslash orqali o'rganadi va ular o'rtasidagi farqlarni oydinlashtiradi.
3. Umumiy grammatika (La grammatica generale) – bu ham alohida tur bo'lib, barcha tillar uchun umumiy bo'lgan qoida va normalarni o'rganadi.

Bizga ma'lumki grammatika o'z ichida ikki katta qismga bo'linadi:

1. Morfologiya (Morfologia)
2. Sintaksis (Sintassi)

“Morfologiya” so'zi grek tilidan olingan bo'lib, “morphe”-shakl, “logos”-ta'limot degan ma'noni anglatadi. Morfologiya grammatikaning bir qismi bo'lib, so'zlarning tuzilishini shaklini, so'z turkumlarini, ularning turlanish va tuslanish hodisalarini va so'zlarning yasalanishlarini o'rganadi.

Shunday qilib, morfologiya so'z turkumlari va ularning grammatik shakliari bo'yicha bahs yuritadi.

Ko'rinadiki, so'zning leksik ma'nosi bilan ularning predmetlik, belgi, harakat singari ma'nolarini ifodaiovchi umumiy grammatik ma'nolari o'rtasida uzviy aloqa mavjuddir. So'zlarni turkumlarga ajratishda so'zlarning leksik ma'nosi ustiga qo'yilgan umumiy grammatik (predmet, belgi — xususiyat, harakat-holat kabi) ma'no asosiy tayanch nuqta bo'lib xizmat qiladi.

Shu bilan birgalikda, morfologiya bilan sintaksis o'rtasida ham chambarchas bog'liqlik mavjud. Morfologiyadagi har bir so'z shakli gap tarkibida ma'lum sintaktik vazifa bajaradi, ma'lum gap bo'lagi vazifasida keladi. Grammatik shakllar gap tarkibidagi bo'laklarni bir-biriga bog'lovchi yoki gap bo'lagiga qo'shimcha ma'no yuklovchi vosita vazifasini bajaradi.

Morfologiyaning asosiy ob'yekti sifatida o'rganiluvchi va alohida grammatik ma'noga ega bo'lgan eng kichik birlik – morfema hisoblanadi. Misol uchun italyan tilidagi *-a* morfemasini olaylik. Ushbu morfema *port* so'ziga qo'shilishi natijasida *porta(eshik)* so'zi vujudga keladi. Yuqorida keltirilgan *a* morfemasi bu ot so'z turkimiga tegishli bo'lib, birlik va jenskiy rodga ekanligini ifoda etmoqda.

Shu o'rinda aytib o'tish joizki, italyan tilida morfemalar ikki turni o'z ichiga oladi, ular:

Erkin morfemalar (Morfemi liberi)

Cheklangan morfemalar (Morfemi legati)

Erkin morfemalar yakka o'zi ham ma'no anglatuvchi birliklardir, misol uchun *ora* morfemasi yakka holda ishlatilganda *hozir* degan payt ravishi ma'nosini anglatsa,..... bu yerda qo'shimch morfema sifatida faoliyat ko'rsatmoqda.

Cheklangan morfemalar uchun, albatta, boshqa bir morfema kerak bo'ladi.  $Lavor+o=lavoro(ish)$  ushbu so'zda *-o* morfemasi uchun *lavor* kerak.

## 1.2 Xorijiy til grammatikasini qiyosiy o'rganish usullari.

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan qiyosiy grammatika (La grammatica comparata) xorijiy tilni o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi kunda biz italyan tilini o'rganish jarayonimizda, o'zbek tiliga solishtirish o'rganamiz. To'g'ri har doim ham bu iki til bir xil natijani beravermaydi. Ba'zi bir vaziyatlarda ikki til o'rtasidagi tushinmovchiliklar, qiyinchiliklarga duch kelishimiz tabiiy hol. Misol uchun, yuqorida ko'rsatib o'tganimiz morfemalarga nazar solaylik: agar *porta* so'zida ko'plik formasini yaratish uchun yana bir boshqa morfemadan *-e* morfemasidan foydalanishimiz va bu morfema *-a* morfemasi o'rnida joylashishi talab qilinadi. Shundan so'ng *porte* (*eshiklar*) shaklida namoyon bo'ladi. Ammo o'zbek tilida *eshik* so'ziga *-lar* ko'plik yasovchi morfemani qoshishimizning o'zi kifoya – *eshik-eshiklar*.

So'zlarning yasalishi jarayoniga nazar soladigan bo'lsak (Derivazione) o'xshashliklarga duch kelamiz. Umuman olganda qo'shimchalar har ikki tilda mavjud old qo'shimchalar va so'z oxiriga qo'shiluvchi qo'shimchalardan tarkib topadi. So'zlarga ma'no berish jihatidan qo'shimchalar so'z yasovchi va so'z o'zgartiruvchi bo'lishiga guvoh bo'lamiz. O'zbek tilida qo'shimchalar italyan tilidan farqli o'laroq so'z o'zgartiruvchi qo'shimchal o'z ichida ikki turga: lug'aviy shakl yasovchi va sintaktik shakl yasovchilarga bo'linadi. Italyan tilida sintaktik shakl yasovchi qo'shimchalar mavjud emas, negaki ular asosan predloglar (kelishiklar o'rnida qo'llanuvchi mustaqil so'z turkimiga kiruvchi so'zlar) bilan ifodalanadi. Misol uchun *Men uyga keltyapman, io vado a casa*. Bu gapda qo'llanilgan *-ga* sintaktik shakl yasovchi qo'shimcha o'rnida *a* predlogi yo'nalishni ko'rsatishga xizmat qilmoqda. Yoki bo'lmasa, *tabiatning go'zalligi, La bellezza della natura* – bu moslashuv shaklidagi so'z birikmasida o'zbek tilidagi qaratqich kelishigi *-ning* o'rnida *di+la=della* artiklashgan predlog qo'llanilmoqda va qaratqich va qaralmishni ifoda etishga xizmat qiluvchi *-i* qo'shimchasi umuman tushib qolmoqda. *Mening kitobim, il mio libro* - kabi ushbu so'z birikmasida *-im* qo'shimchasiz qo'llanilmoqda, lekin qaratqich va qaralmish munosabati o'zgargan emas.

Italayn tilida so'zlarning yasalishi bo'yicha ayrim misollar bilan tanishib chiqamiz.

Prefissazione- "pre"- old, "fissazione"- qo'shish degan ma'nolarni anglatadi, ya'ni so'zlarning asosi oldidan qo'shimcha qo'shish orqali so'z yasashdir.

Misol uchun, *dividere* –*condividere*

SUFFISSAZIONE – hodisasi bu asos oxiriga qo'shilib, asosga qo'shimcha ma'no yuklaydi yoki yangi so'z yasaydi. So'zlarga suffiks qo'shilganda fonetik o'zgarish yuz berishi mumkin. Ya'ni asosdagi oxirgi unli harf tushib qolishi, tovush almashinishi, orttirilishi kuzatiladi.

Masalan: *dente* –asos, ma'nosi tish, *ista* – qoshimcha, *dente + ista* \_ *dentista*.

Bu yerda *dente* so'zining oxiridagi "e" unli harfi tushib qoldi.

*Mangiare* -asos (yemoq fe'li), *abile* – qo'shimcha, *magiare + abile* \_ *mangiabile*.

*Chiudere* - asos (yopmoq fe'li), *ibile* – qo'shimcha, *chiudere + ibile* \_ *chiudibile*.

ALTERAZIONE – bu derivatsiyaning bir qismi bo'lib, so'zlarga kichraytirish, erkalash, salbiy ma'nolarni beradi, bundan tashqari ozaytirma nisbatdagi ma'noni ham yuklaydi. Misol uchun:

**-ino/a**                      *Mamma* – ona,                      *mamma* - onajon

**-(u)olo/a**                      *figlio* – o'g'il,                      *figliolo* – o'g'ilcha

FORME PARASINTATTICHE – bu hodisa asosning har ikki tomonidan qo'shimcha qo'shiladi va yangi so'z yasaydi yoki qo'shimcha ma'no yuklaydi.

Masalan: *faccia* ---> *sfacciato*. **Faccia** – asos, (s) old qo'shimcha, **-ato** – suffiks.

Asosning har ikkala tomonidan qo'shimcha qo'shish hodisasi o'zbrk tiliga ham xos desak mubolag'a bo'lmaydi. Masalan: *nuqson* – *benuqson* – *benuqsonlik*, kabi misollarni keltirishimiz mumkin.

## **II BOB. Italyan tili morfologiyasini talabalarga o'rgatishning ahamiyati va roli.**

### **Italyan tili morfologiyasida mustaqil va yordamchi so'z turkumlari.**

So'zlar borliqdagi nimani bildirishi (umumiy grammatik ma'nosi) yoki bildirmasligi, ma'lum so'roqqa javob bo'lishi yoki bo'lmasligiga ko'ra mustaqil so'zlar va yordamchi so'zlarga bo'linadi.

Ma'lum bir so'roqqa javob bo'lib, atash va umumiy grammatik ma'noga (masalan, predmet, belgi, miqdor, harakat-holat kabi) ega bo'lgan so'zlar mustaqil so'zlar sanaladi. Masalan, gul (nima?), chol (kim?), chiroyli (qanday?), yuztacha (nechta?), keldi (nima qildi?) kabi.

Ma'lum so'roqqa javob bermaydigan, atash ma'nosiga ega bo'lmagan, faqat grammatik ma'no ifodalovchi, lekin o'zidan oldin kelgan so'zga grammatik shakl sifatida qo'shilib, u bilan bir lug'aviy urg'u ostida birlashmaydigan so'zlarga yordamchi so'zlar deyiladi.

Italyan tili morfologiyasida so'z turkimlari(Parti dek discorso) to'qqiztani tashkil etib, ular o'zgaruvchan(variable) va o'zgarmas(invariabile) turlarga bo'linadi. O'zgaruvchi turga kiruvchilar beshta bo'lib ular quyidagilar:

**Ot – sostantivo yoki nome**

**Sifat – aggettivo**

**Artikl – articolo**

**Olmosh - pronome**

**Fe'l – verbo**

O'zgarmas turga kiruvchi so'z turkimlari esa to'rttani tashkil etib ular:

**Ravish – avverbio**

**Predlog – preposizione**

## **Bog'lovchi – congiunzione**

## **Undov so'zlar - interiezione**

### **Ot – sostantivo.**

Shaxs va narsani nomini ko'rsatish uchun xizmat qiluvchi bu so'z turkimi - ot deb ataladi va *kim? (Chi?) nima?(Che cosa?) va qaysi?(Che?)* so'roqlariga javob bo'ladi.

Otning bir qancha turlari bo'lib ular quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Nomi comuni – turdosh otlar *la vita – hayot*
2. nomi propri – atoqli otlari *Samarcanda - Samarqand*
3. nomi collettivi – biriktiruvchi jamlovchi otlar *la gente - xalq*
4. nome concreti – konkret otlar *il fiore - gul*
5. nomi astratti – abstrakt otlar *l'amore – sevgi*

### **Sifat – aggettivo.**

Sifat mustaqil, o'zgaruvchan (variabilie) so'z turkimi bo'lin ot so'z turkimiga mansub so'zlarga belgi, xususiyat qo'shish bilan xarakterlanadi va *qanday? Qanaqa? (Come?)* so'roqlariga javob bo'ladi.

Sifat bir qancha turlarni o'z ichiga oladi

- a) Aggettivi possessivi – egalik sifatlari (o'zbek tilida egalik olmoshlari)

*Mio – mening, tuo-sening suo-uning, nostro-bizning, vostro-sizning, loro-ularning*

Yuqorida misol qilib ko'rsatilgan egalik sifatlari otga ergashib kelganda sifat vazifasini bajaradi.

- b) Aggettivi dimostrativi-ko'rsatish sifatlari.

*Questo-bu, codesto-bu, quello-u,o'sha,*



d) Aggettivi indefiniti-noaniq sifatlar

*ogni-har bir, ciascuno-har bir kishi, qualunque-har qaysi, qualsiasi-har qaysi, nessuno-hech kim, qualche-bir qancha, alcuno-ayrim, certo-shubxasiz, poco-kam, molto,tanto-ko'p, altro-boshqa, vario-turli*

e) Aggettivi interrogativi-so'roq sifatlari.

*Che-qaysiki?, quale-qaysi?, quanto-qancha?*

f) Aggettivi numerali – miqdorni ifodalovchi sifatlar.

1. cardinali-sanoq sifatlar: *uno-bir, due-ikki, tre-uch.....*

2. ordinali-tartib sifatlar: *primo-biribchi,secondo-ikkinchi terzo-uchinchi.....*

3.multiplicativi-jamlovchi sifatlar: *doppio-juft, triplo-uchtalik.*

Sifat darajalari uch turga bo'linib ular quyidagilardan iborat:

1. Grado positivo - oddiy daraja: *bello, buono, cattivo...*

2. Grado comparativo - qiyosiy daraja

a) Maggioranz – ko'paytirma daraja *PIÙ ...(aggettivo) + di, che*

b) Minoranza – ozaytirma daraja *meno...(aggettivo) + di, che*

c) Ugualanza – tenglik darajasi *tanto...(aggettivo) + quanto,*

*cosi...(aggettivo) + come.*

3. Grado superlativo - orttirma daraja

a) relativo – qiyosiy orttirma *Il PIÙ ... (aggettivo) + di, in, tra, fra.*

b) assoluto – qiyosiy bo'lmagan orttirma *aggettivo - issimo,*

*molto, tanto(juda), veramente(haqiqatdan ham) + aggettivo*

## **Articolo – artikl**

Artikl yordamchi soʻz turkimi boʻlib, oʻzidan keyin keladigan otini tavsivlash uchun ishlatiladi.

Artikllar oʻz ichida bir qancha turga boʻlinadi:

1. Articolo determinativo – aniq artikl: *il, i, lo, gli, la, le*. Aniq artikllar soʻzlovchi uchun tanish boʻlgan kishi yoki narsani bildiruvchi ot bilan birgalikda ifodalanadi.
2. Articol indeterminativo – noaniq artikl: *un, uno, una*. Noaniq artikllar soʻzlovchi uchun notanish boʻlgan kishi yoki narsani bildiruvchi ot bilan birgalikda ifodalanadi.
3. Articolo partitivo – nisboy artikl: *del, dei, dello, degli, della, delle*. Nisbiy artikllar **di** predlogi va aniq artiklning qoʻshilishi natijasida yasaladi. Hisoblanmaydigan, oʻlchanmaydigan otlar oldida ishlatiladi.

## **Pronome – olmosh**

Pronome - “ot oʻrnida qoʻllanuvchi” degan maʼnoni oʻzida ifoda etib, u har tomonlama otning oʻrnini bosadi. Olmoshlarni bir qancha turga boʻlishimiz mumkin:

1. Pronomi personali – kishilik olmoshlari: *io-men, tu-sen, lui-u(erkak), lei-u(ayol), Lei-Siz(hurmat maʼnosida), noi-biz, voi-siz(lar), loro-ular*
2. Pronomi possessivi – egalik olmoshlari: *mio-mening, tuo-sening, suo, uning, nostro-bizning, vostro-siz(lar)ning, loro-ularning*.
3. Pronomi dimostrativo – koʻrsatish olmoshi: *questo-bu, quello-u, oʻsha*.
4. Pronomi indefiniti – noaniq olmoshlar: *ogni-har bir, ciascuno-har bir kishi, qualunque-har qaysi, qualsiasi-har qaysi, nessuno-hech kim, qualche-bir*

*qancha, alcuno-ayrim, certo-shubxasiz, poco-kam, molto,tanto-ko'p, altro-boshqa, vario-turli.*

5. Pronomi relativi – nisbiy olmoshlar: *che, (il, lo, la, i, le) + quale/i, (in, su, tra, fra, di, a) + cui.*
6. Pronomi interrogativi e esclamativi – so'roq va undov olmoshlari: *Che? Che cosa? Chi? Quanto? Quale? Che fai? – nima qilyapsan? Che ho fatto! – Nima qildim!*
7. Pronomi numerali – sanoq olmoshlari:
  - a) cardinali-sanoq olmoshlar: *uno-bir, due-ikki, tre-uch.....*
  - b) ordinali-tartib olmoshlar: *primo-biribchi,secondo-ikkinchi terzo-uchinchi.....*
  - c) moltiplicativi-jamlovchi olmoshlar: *doppio-juft, triplo-uchtalik.*

***Olmoshlar sifatlar bilan bir xil shaklga ega bo'lishiga qaramasdan, ular birbiridan tubdan farq qiladi: sifat har doim otga ergashib kelsa, olmoshlar esa yakka holda ot o'rnida ishlatiladi!***

### **Verbo – fe'l.**

F'el – mustaqil so'z turkumi bo'lib, ish-harakatni ifodalash uchun xizmat qiladi va Cosa ha fatto?(nima qildi?), Cosa fa? (nima qilyapti?), Cosa fara' (nima qiladi?) so'roqlariga javob bo'ladi. Fe'l ikki turga bo'linadi: Transitivo – o'timli va intransitivo – o'timsiz fe'llatrdir. Agar fe'l o'zidan keyin tushim kelishidagi so'zni olsa yoki to'g'ridan-to'g'ri vositasiz to'ldiruvchiga bog'lansa, bunday fe'llar o'timli fe'llardir. Misol uchun: *Lui ha letto il libro – U kitobni o'qidi.* Ko'rinib turibdiki, o'qimoq-leggere fe'li o'timli va o'zidan keyin tushum kelishidagi so'zga birikmoqda.

O'timsiz fe'llarda ish harakat o'z bajaruvchisida qoladi. *Sei andato a casa?- Sen uyga ketdingmi?*

## **Parti invariabili del discorso (O'zgarmas so'z turkumlari)**

### **Avverbio – ravish.**

Ravish mustaqil so'z turkumi bo'lib, gapning ma'nosini o'zgartirishga, aniqlashga xizmat qiladi. Ravishlar tuzilishiga ko'ra *avverbi semplici-oddiy ravishlar*, *avverbi composti-murakkab ravishlar* va *avverbi derivati-yasama ravishlarga* bo'linadi. Oddiy ravishlar bir so'zdan tashkil topadi: *qui-shu yerda, quando-qachon, sempre-har doim, ieri-kecha, oggi-bugun ecc.* Murakkab ravishlar esa ikki yoki undan ortiq so'zlarning qo'shilishi natijasida vujudga keladi: *infatti(in-fatti) – haqiqatdan ham, almeno(al-meno) – hech bo'lmasa ecc.* Yasama ravishlar boshqa so'z turkumlaridan qo'shimcha qo'shish orqali yasaladigan ravishlardir: *lenta-mente – sekin, facil-mente – oson, tast-oni – paypastlab, ecc.*

### **Tipi di avverbio –ravish turlari.**

1. Avverbi di modo – holat ravishlari: *velocemente, lentamente...*
2. Avverbi di luogo – o'rin ravishlari: *qua, lontano, davanti, dovunque...*
3. Avverbi di tempo – payt ravishlari: *oggi, domani, ieri, adesso, ora.*
4. Avverbi di giudizio – baholovchi ravishlar: *certamente, sicuro...*
5. avverbi di quantita' – miqdor ravishlari: *molto, poco, troppo, niente...*
6. Avverbi interrogativi – so'roq ravishlari: *come, dove, quando...*
7. Avverbi di dubbio – ikkilanish ravishlari: *forse, probabilmente...*
8. Avverbi di negazione – inkor ravishlari: *no, non...*

### **Preposizione – predlog.**

Predloglar o'zbek tilidagi kelishklar va ko'makchilar ba'zan bog'lovchilar vazifasida keluvchi o'zgarmas so'z turkimiga nisbatan aytiladi va ular vaqtni, joyni

ko'rsatish uchun xizmat qiladi. Predloqlarning bir qancha turlari bo'lib, ular quyidagicha tasniflanadi:

1. Le preposizioni semplici – sodda predloqlar: *di- haqida, a-ga tomon, su-ustida, in-ichida, per-uchun, con-bilan, tra, fra-orasida, da-dan.*
2. Le preposizioni articolate – murakkab predloqlar aniq artikllar va sodda predloqlarning qo'shilishi natijasida tashkil topuvchi predloqlardir: *di+lo=dello, su+i=sui, da+la=dalla, a+gli=agli, in+il=nel, con+il=col* (**con** predlogi bilan aniq artikllarning qo'shilish jarayonlari kamdan-kam hollarda, adabiyot va tarixiy asarlarda uchrab turadi).
3. Le preposizioni improprie – nomutonosib predloqlar ushbu predloqlar ravish so'z turkimiga kiruvchi so'zlar bilan sodda predloqlarning birgalikda ishlatilishi bilan yuzaga keladi: *accanto a-qarshisida, davanti a-oldinga, lontano da –uzoqdan, insieme con – birgalikda...*

### **Congiunzione-bog'ovchi.**

Bog'lovchilar – o'zgarmas (invariabile) so'z turkumi bo'lib, gaplarni bog'lash uchun xizmat qiladi. *Misol uchun: e – va, perché – chunki, per questo – shuning uchun, che – qaysik. Se – agar, quando-qachon.*

*Se piove, non andiamo alla montagna – Agar yomg'ir yog'sa, tog'ga bormaymiz.*

*Quando io sono venuto a casa mia, il mio fratello dormiva.*

*Fa molto freddo perché nevica.*

*Domani sarà il compleanno di Paolo, per questo lui non andrà alla lezione.*

### **Interiezione – undov so'zlar.**

Undov so'zlar – o'zgarimas so'z turkumi bo'lib, xursabdchilik, azob, qayg'urish, ajablanish, hayratlanish, nafratlanish kabi tuyg'ularni ifoda etish uchun xizmat qiladi.

Undov so'zlar quyidagi turlarni o'z ichiga oladi:

1. Le interiezioni propriamente oppure semplici – sodda undov so'zlar: *oh! Eh! Uh! Beh! Toh! Ma! Ah! Uffa! Urra! Ecc...*
2. Le interiezioni improprie – nomutonosib undov so'zlar – ushbu undov so'zlar boshqa so'z turkumiga kiruvchi so'zlarning his-hayajon bilan aytilishi natijasida yuzaga keladi: *Addio! Forza! Bravo! Auto!*
3. Le locuzioni esclamative - his-xayajonni ifodalovchi iboralar: *Dio mio!, Che bellezza! Mamma mia! Che peccato!, Che cavolo!*

## 2.2 Italyan tilida morfologik kategoriyalar.

Morfologik kategoriyalar *parti variabili del discorso* (o'zgaruvchan so'z turkumlarida uchraydi. Ot so'z turkumiga kiruvchi so'zlarda **rod(genere) va son(numero)** kategoriyalari mavjud:

Agar otlarning oxirgi harfi –o bilan tugasa, bunday so'zlar maschile(mujskoy) rodga mansub. Misol uchun: **libro**, **cavallo**, **tavolo**...

Agar otlarning oxirgi harfi –a bilan tugasa, bunday so'zlar femminile(jenskiy) rodga mansub: **lavagna**, **donna**, **gonna**, **giacca**...

Ammo oxirgi harfi –e bilan tugaydigan so'zlar ham mavjud, ular ham maschile, ham femminile rodiga mansub bo'la oladi. Ularning farqini ular oldidan keladigan artikllar orqali bilib olishimiz mumkin. Shuni ta'kidlash joizki –zione bilan tugaydigan so'zlarning hammasi femminile rodiga mansubdir. **Lezione**, **educazione**, **classificazione**...

Otlarni oxirgin harfiga ko'ra tasniflash jarayonida ayrim tushinmovchiliklarga duch kelishimiz mumki.

Otlarda istisno shakllari:

-o bilan tugagan, ammo femminile rodiga mansub otlar: *mano*

-a bilan tugavchi, ammo maschile rodiga mansub so'zlar: *papa'*, asosan grek tilida o'zlashgan va -ma bilan tugovchyo so'zlarning hammasi maschile rodiga tegishli bo'ladi: *tema, programma, sistema, problema...*

Otlarda son kategoriyasi, bu kategoriya rod kategoriyasi bilan uzviy bogliqdir. Yuqorida tilga olingan -o bilan tugovchi birlikdagi so'zlar, ko'plik formani yasash uchun -i shakliga o'zgaradi: *libro*(kitob) – *libri* (kitoblar).

-a bilan tugovchi so'zlarimiz esa, -e shklini o'zida ifoda etadi: *donna*(ayol) – *donne*(ayollar)

-e bilan tugovchi har bir ot(maschile(m)yoki femminile(f) rodiga mansub bo'lishidan qat'iy nazar) -i shaklida naoyon bo'ladi: *fiore*(m) – *fiori*, *lezione*(f) – *lezioni*.

Istisno shakliga ega bo'lgan so'zlar quyidagicha sonda o'zgaradi:

*la mano* (f) – *le mani* (f) – *qo'l* – *qo'llar*

*il braccio* – *le braccia* - *qo'l* – *qo'llar*

*il tema* – *i temi* – *mavzu* – *mavzular*

*il problema* – *i problemi* – *muammo* – *muammolar...*

Artikllar va sifat so'z turkumiga kiruvchi so'zlar otlarga ergashib kelib, ularga moslashadi. Agar ot m. rodga bo'lsa **il** aniq artikl ishlatiladi va uning ko'plik formasi uchun esa, **i** aniq artikli qo'llaniladi. Agar m. rodga kiruvchi otlar

S+consonante(undosh), ps-, x-, y-, z-, pn- lar bilan boshlansa **lo** aniq artikl ishlatiladi:

*Lo sport, lo psicologo, lo xilofono, lo yogurt, lo pneumologo...*

Ushbu so'zlar ko'plik formasi uchun **gli** ishlatiladi.

Agar m. roddagi otlar unli bilan boshlansa, u holda **lo** artikli **l'** shaklida otlarga ergashadi: *l'amico – do'st, l'attore – aktyor, l'inno – madhiya* ular ko'plik formasiga o'tganda esa, **gli** aniq artikl ishlatiladi: *gli amici – do'stlar*.

Agar otlar f. rodga tegishli bo'lsa av undosh harf bilan boshlansa **la** aniq artikl ishlatiladi, agar f. roddagi otlar unli bilan boshlansa, **l'** aniq artikl qo'yiladi. Ular, umumiy ravishda, ko'plik formada **le** aniq artikli orqali ifodalanadi: *la ragazza – qiz, l'altezza – balandlik, le ragazze – qizlar, le altezze – balandliklar*.

Sifatlar ham otlarga son va rodga moslashadi. Sifatlar, asosan, **-o** va **-e** harflari bilan tugaydi. **-o** harfi bilan tugovchi sifatlar otning rodiga va soniga qarab unga to'g'ridan-to'g'ri moslashadi: **buono – yaxshi**

*Amico buono – yaxshi do'st*                      *amici buoni – yaxshi do'stlar*

*Amica buona – yaxshi dugona*                      *amiche buone – yaxshi dugonalar.*

Ammo sifatlar **-e** bilan tugasa rodga moslashmaydi ular faqat sonda o'zgarishi kuzatiladi: **facile – oson.**

*lavoro facile – oson ish*                      *lavori facili – oson ishlar*

*vita facile – oson hayot*                      *vite facili – oson hayotlar.*

*Blu-ko'k, viola-binafsha rang, rosa-gulobi* kabi ranglar rodga ham, sonda ham moslashmaydi va shakli o'zgarmaydi: *blu piatto – ko'k idish, blu piatti - ko'k idishlar.*

Olmoshlar ham rod va sonda moslashadi ammo otga ergashib kelmaydi, balki ot o'rnida qo'llanilib, u qaysi rodni yoki qaysi sonda bo'lishiga qarab o'zgaradi.

Misol uchun ko'rsatish olmoshi **quello – u**, o'sha:

*quello è il libro – u kitob,*                      *quelli sono i libri – ular kitoblar,*

*quella è la donna – u ayol,*                      *quelle sono le donne – ular ayollar.*



## Fe'l kategoriyalari – verbo.

Fe'l boshqa so'z turkumlaridan farqli o'laroq, rodda, sonda va shuningdek, shaxsda ham moslashadi. Zamonlarning tuzilishiga ko'ra ikki: oddiy va murakkab zamonlar deyishimiz mumkin. Agar zamonlarni hosil qilish uchun yordamchi fe'llar avere(ega bo'lmoq) va essere (bo'lmoq) ishlatilsa, bunday zamonlar yasalishi jihatidan murakkab, agar fe'llar o'zi zamonnini ifodalovchi qo'shimchalar orqali ifoda etilsa, yasalishi jihatdan oddiy zamaon deya olamiz. Oddiy zamonlarda rod va son tushinchalari ahamiyat kasb etmaydi, faqat fe'llar shaxsda moslashadi.

Misol uchun: Presente indicativo – hozirgi zamon

Andare – bormoq, ketmoq fe'li

### **Singolare-birlik**

*Io vado-men ketyapman*

*Tu vai-sen ketyapsan*

*Lui, lei va-u ketyapti*

### **plurale-ko'plik**

*noi andiamo-biz ketyapmiz*

*voi andate-siz ketyapsiz*

*loro vanno-ular ketyaptilar.*

Oddiy zamaonlaraga: imperfetto – o'tgan davomiy zamon, remoto – uzoq o'tgan zamon, futuro semplice-kelasi oddiy zamonlar kiradi.

Murakkab zamonlarda, yuqorida ta'kidlaganimizdek, yordamchi fe'llar avere va essere ishlatiladi. Faqat essere fe'li yordamchi fe'l sifatida kelgainadgina, fe'llar rod, son va shaxsda moslasha oladilar. O'timsiz bo'lgan fe'llar o'zlari uchun yordamchi f'e'l sifatida essere ni olishlari mumkin.

Misol uchun: passato prossimo – o'tgan zamon

Andare – bormoq, ketmoq fe'li

### **Singolare-birlik**

*Io sono andato/a-men ketdim*

### **plurale-ko'plik**

*noi siamo andati/e-biz ketdik*

*Tu sei andato/a-sen ketding*

*voi siete andati/e- siz ketdingiz*

*Lui,lei è andato/a- u ketdi*

*loro sono andati/e-ular ketdilar*

Muarakkab zamonlar: futuro anteriore, trapassato prossimo, trapassato remoto.

### **XULOSA.**

Har bir o'z ichki qurilishi, o'z imkoniyatlari bilan boshqa tillardan farq qiladi va o'xshashlik tomonlarini o'zida mujassam etadi. Avvlambor, chet tilini o'rganishdan avval biz, uning grammatikasi bilan tanishib chiqishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'yamiz. Xulosa o'rnida shuni ta'kidlashiz joizki, italyan tilini o'rganayotgan o'zbek talabalarning tilni chuqur, tez, mustahkam o'rganishlari uchun grammatika ahamiyati beqiyos sanalib, u talaba bilimlarining poydevori bo'lmog'i lozim. Shu sababli italyan tilining grammatikasini o'rgatishning eng tezkor va talabalarning tushunishlari uchun qulay bo'lgan tilshunoslikning morfologiya bo'limiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Tabiiyki, morfologiya grammatikaning tarkibiy qismlaridan hisoblanadi. Bular hisobga olinib italyan o'qituvchilari yaratayotgan o'quv qo'llanmaning asosi morfologiya ekanligidir. Buning asosiy sababi morfologiya orqali tilni tez va aniq, to'g'ri grammatik qoidalar orqali o'rgatish mumkinligida bo'lsa, ikki tilni qiyoslab talabalarga o'rgatish ijobiy, samarali usul sanalib, bu italyan tilini yanada tez o'rganish, qo'llanish o'rinlarini va ko'nikma hosil qilishga katta yordam beradi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Maurizio Dardano e Piero Trifone “Grammatica italiana con nozioni di linguistica terza edizione”, Zanichelli editore S.p.A., Bologna, 1995.
2. Maurizio Dardano e Pietro Trifone “La lingua italiana”. Bologna, 1985.
3. M.Samburg “Strutture dell’italiano” – Fides- Verona, 1990.

### Internet saytlari:

1. [www.Google.it](http://www.Google.it) (Morfologiya)
  2. [www.wikipedia.it](http://www.wikipedia.it)
  3. [www.dizionario-italiano.it](http://www.dizionario-italiano.it)
1. Giuseppe Patota, *Grammatica di riferimento della lingua italiana per stranieri*, Felice Le Monnier, Firenze, 2003